

**GLOBAL RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA FUQAROLIK
JAMIYATI TRANSFORMATSIYALASHUVI TENDENSIYALARI**

Dilmurodov Elyorjon Ilg'or o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

E-Mail: d.ernazarov@tsue.uz

Mobil: +99891 4495526

Annotatsiya. Mazkur maqolada global raqamlashtirish jarayonlarining zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat texnik-iqtisodiy sohada, balki fuqarolik sub'ektligining mohiyati, jamoat fazosining tuzilishi va fuqarolik institutlarining faoliyat yuritish mexanizmlarida ham tizimli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Maqolaning maqsadi — raqamlashtirishning O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatish tendensiyalarini nazariy va empirik jihatdan aniqlashdan iborat. Tadqiqotda nazariy-falsafiy tahlil usullari bilan bir qatorda ijtimoiy so'rovnoma natijalaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aholining sezilarli qismi raqamli tengsizlik muammosidan xabardor, fuqarolik institutlari raqamlashtirishni asosan qisman o'zlashtirgan, ijtimoiy tarmoqlar yetakchi kommunikatsiya kanaliga aylangan va milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga oluvchi evolyusion yondashuv ustuvor deb baholanadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi g'arb tajribasini mexanik ko'chirish emas, balki mahalliy ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashgan, bosqichma-bosqich jarayon sifatida rivojlanishi lozim.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, raqamli transformatsiya, jamoat fazosi, raqamli tengsizlik, elektron hukumat, fuqarolik sub’ektligi, O‘zbekiston.

KIRISH

Fuqarolik jamiyati tushunchasi ijtimoiy falsafa tarixida davlat va xususiy hayot o‘rtasidagi oraliq soha sifatida, erkin, ixtiyoriy uyushgan fuqarolarning o‘zaro muloqot va hamkorlik maydoni sifatida shakllangan (Tocqueville, 2000/1835). XX asrning ikkinchi yarmida bu tushuncha Yurgen Xabermasning «jamoat fazosi» (public sphere) konsepsiyasi orqali yanada chuqur nazariy asosga ega bo‘ldi — unga ko‘ra, zamonaviy demokratik jamiyatda fuqarolarning erkin muhokama yuritish maydoni davlat hokimiyatini nazorat qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning markaziy mexanizmi hisoblanadi (Habermas, 1989). Robert Putnamning ijtimoiy kapital nazariyasi esa fuqarolik jamiyati samaradorligini fuqarolararo ishonch va o‘zaro uyushuv darajasi bilan bog‘laydi (Putnam, 2000).

XXI asrga kelib, ushbu nazariy asoslar tubdan yangi kontekstda — global raqamlashtirish sharoitida — qayta ko‘rib chiqilishni taqozo etmoqda. Manuel Kastels ta’kidlaganidek, zamonaviy jamiyat «tarmoq jamiyati»ga aylanib bormoqda, unda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali tashkil topadi (Castells, 1996). Bu jarayon fuqarolik jamiyati institutlarining — nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining — faoliyat yuritish shakli, kommunikatsiya kanallari va ijtimoiy ta’sir mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Italiyalik mutafakkir Antonio Gramshi esa fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyatining «qattiq» tuzilmalaridan farqli o‘laroq, gegemoniya — ya’ni madaniy va mafkuraviy yetakchilikning shakllanish maydoni sifatida tahlil qilgan edi (Gramsci, 1971). Gramshining ushbu yondashuvi muhim

metodologik ahamiyatga ega: u fuqarolik jamiyatini nafaqat institutsional tuzilma, balki jamoatchilik ongida hukmron g'oyalar va qadriyatlarning shakllanish maydoni sifatida ko'rish imkonini beradi. Raqamli davr kontekstida bu yondashuv alohida dolzarblik kasb etadi — chunki ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar aynan mana shunday mafkuraviy-madaniy gegemoniyaning yangi maydoniga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bir xilda, barcha ijtimoiy guruhlar uchun barobar imkoniyatlar yaratmaydi. Pippa Norris va Yan van Deyk tomonidan ishlab chiqilgan «raqamli tengsizlik» konsepsiyasi ko'rsatishicha, raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyati, ulardan foydalanish ko'nikmalari va bu foydalanishdan olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar darajasida jiddiy tabaqalanish mavjud (Norris, 2001; van Dijk, 2020). Bu tabaqalanish, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi jarayonida yangi turdagi ijtimoiy tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida raqamli davlat xizmatlari tizimi, «Elektron hukumat» platformalari, «Mening fikrim», «Tashabbusli byudjet» kabi fuqarolik ishtiroki mexanizmlari joriy etilmoqda (Masharipov, 2025). Shu bilan birga, tadqiqotchilar ta'kidlashicha, rasmiy raqamlashtirish ko'rsatkichlarining o'sishiga qaramay, davlat organlari o'rtasidagi o'zaro moslashuvchanlik (interoperability) va fuqarolarning real ishtiroki borasida sezilarli «loyiha-reallik tafovuti» (design-reality gap) saqlanib qolmoqda (Kuldosheva, 2021).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolaning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi: birinchidan, fuqarolik jamiyati nazariyasining raqamli davr kontekstida qayta konseptuallashtirilishi zarurati; ikkinchidan, O'zbekiston misolida ushbu jarayonning empirik jihatdan yetarlicha

o'rganilmaganligi; uchinchidan, milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda raqamli transformatsiya strategiyasini ilmiy asoslash zaruratidir.

Maqolaning maqsadi — global raqamlashtirish davrida fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvining asosiy tendensiyalarini nazariy-falsafiy tahlil va empirik tadqiqot natijalari asosida ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, fuqarolik jamiyati va raqamlashtirish tushunchalarining nazariy-konseptual munosabatini aniqlash; ikkinchidan, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining raqamli transformatsiya jarayonidagi holatini empirik tahlil qilish; uchinchidan, olingan natijalar asosida milliy kontekstga mos metodologik yondashuvlarni taklif etish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Yangi O'zbekiston» islohotlari konsepsiyasi doirasida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning sifat jihatidan yangilanishi strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan (Masharipov, 2025). Biroq bu jarayonni faqat me'yoriy-huquqiy islohotlar doirasida emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy kontekstda — fuqarolik sub'ektligining mohiyati, jamoatchilik ongi va institutsional madaniyatning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan — tahlil qilish zarurati mavjud. Postsovet makonidagi boshqa tranzit iqtisodiyotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli islohotlarning rasmiy-institutsional jihatida ko'pincha jamoatchilik amaliyotidan oldinda ketadi, bu esa o'ziga xos «raqamli islohot paradoksi»ni keltirib chiqaradi: texnik infratuzilma mavjud bo'lsa-da, uning fuqarolik sub'ektligi sifatiga real ta'siri cheklangan bo'lib qolmoqda (Kuldosheva, 2021).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichli — nazariy-konseptual va empirik-sotsiologik — metodologiyaga asoslandi. Nazariy bosqichda dialektik, tizimli-strukturaviy

hamda qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi: fuqarolik jamiyati nazariyalarining klassik va zamonaviy (Xabermas, Kastels, Patnem) konsepsiyalari raqamlashtirish fenomeni bilan o‘zaro bog‘liqlikda qiyosiy tahlil qilindi.

Empirik bosqichda standartlashtirilgan anketa-so‘rovnoma usulidan foydalanildi. So‘rovnoma tuzilmasi besh yo‘nalishni qamrab oldi: birinchidan, ijtimoiy-demografik ma’lumotlar; ikkinchidan, raqamli tengsizlik va fuqarolik institutlari faoliyatidagi raqamlashtirish darajasini baholash; uchinchidan, fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi mohiyatini konseptual tushunish; to‘rtinchidan, axborot xavfsizligi va kibermadaniyat jihatlari; beshinchidan, ochiq savol orqali respondentlarning mustaqil takliflarini yig‘ish. So‘rov savollari yopiq turdagi (bir javobni tanlash imkonini beruvchi) shaklda tuzildi, bu javoblarni statistik jihatdan umumlashtirish va foiz ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish imkonini berdi.

Respondentlar turli yosh guruhlari (asosan faol internet foydalanuvchilari ustunlik qilgan), ta’lim darajasi va band bo‘lish sohasi bo‘yicha tabaqalashtirilgan tarzda tanlandi. So‘rov natijalari anonim tarzda yig‘ildi va faqat umumlashgan statistik ko‘rinishda tahlil qilindi, bu tadqiqot etikasining asosiy talablariga mos keladi.

Olingan miqdoriy ma’lumotlar tavsifiy statistika usulida (foizli taqsimot) qayta ishlandi va nazariy qismda ko‘rib chiqilgan konseptual modellar — xususan, raqamli tengsizlikning ko‘p darajali modeli hamda jamoat fazosining transformatsiyasi konsepsiyasi — bilan o‘zaro bog‘liqlikda talqin qilindi.

Tadqiqot metodologiyasining ishonchliligini ta’minlash maqsadida so‘rovnoma savollari nazariy adabiyotda aprobatsiya qilingan konseptual kategoriyalar (raqamli tengsizlikning uch darajali modeli, jamoat fazosi tushunchasi, fuqarolik sub’ektligi belgilari) asosida tuzildi, bu esa empirik

natijalarni nazariy model bilan bevosita bog‘lash imkonini berdi. Shuningdek, nazariy-falsafiy va empirik-sotsiologik usullarning uyg‘unlashuvi (metodologik triangulyatsiya) tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirdi — nazariy tahlil orqali aniqlangan konseptual taxminlar empirik ma’lumotlar bilan o‘zaro tekshirildi va ushbu jarayon o‘z navbatida natijalarning ishonchliligini mustahkamladi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan so‘rov natijalari fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi jarayoniga nisbatan respondentlar qarashlarining bir qator muhim tendensiyalarini ochib berdi.

Raqamli tengsizlik muammosidan xabardorlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lib chiqdi: respondentlarning 60 foizi ushbu muammo mavjudligidan xabardor ekanini bildirdi, 12 foizi esa bundan butunlay bexabar ekanini ko‘rsatdi. Raqamli tengsizlikning namoyon bo‘lish darajalari bo‘yicha so‘ralganda, aksariyat respondentlar (72,8%) uni, avvalo, fizik kirish imkoniyati — infratuzilma, qurilma va internet tezligi — bilan bog‘ladi, bu esa aholi ongida raqamli tengsizlikning «birinchi darajali» (texnik-infratuzilmaviy) ko‘rinishi ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining raqamlashtirish darajasiga kelsak, respondentlarning 67,4 foizi bu jarayonni «qisman amalga oshirilgan» deb baholadi, faqat 18,6 foizi uni to‘liq joriy etilgan deb hisoblaydi. Bu natija Kuldosheva (Kuldosheva, 2021) tomonidan aniqlangan «loyiha-reallik tafovuti» konsepsiyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Kommunikatsiya kanallari bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarning mutlaq ustunligi (87,2%) qayd etildi — bu Kastelsning tarmoq jamiyati nazariyasiga (Castells, 1996) mos keluvchi amaliy dalil hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining fuqarolik jamiyati rivojiga ta'siri borasida respondentlarning aksariyati (75,6%) ijobiy pozitsiyani namoyish etdi, bu «ozodlik texnologiyasi» (liberation technology) konsepsiyasining (Diamond, 2010) zamonaviy ko'rinishdagi davomi sifatida baholanishi mumkin. Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda raqamlashtirishning rolini 78,2 foiz respondent yuqori baholadi.

Institutsional transformatsiyaning sifat jihatida bo'yicha (siyosiy partiyalar, NNTlar, o'zini-o'zi boshqarish organlari) 69,6 foiz respondent ijobiy ta'sirni qayd etdi, biroq 12,3 foiz bu tashkilotlarning hamon an'anaviy usullarda ishlashini ta'kidlaydi — bu transformatsiyaning notekis kechayotganini ko'rsatadi. Shaxsiy raqamli savodxonlik va madaniyatga ta'sir borasida 81 foiz ijobiy baho berdi. OAV faoliyatidagi miqdor va sifat o'zgarishlarini esa 79,8 foiz respondent tasdiqladi.

Metodologik yondashuvga oid yakuniy savolda eng diqqatga sazovor natija qayd etildi: respondentlarning 66,4 foizi milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga oluvchi evolyusion-moslashuvchan yondashuvni ma'qul topdi, g'arb tajribasini aynan ko'chirishni ma'qullaganlar esa atigi 1,2 foizni tashkil etdi. Bu natija tadqiqotning markaziy nazariy farazini — raqamli transformatsiyaning milliy kontekstga moslashtirilgan modelini ishlab chiqish zaruratini — empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Umumlashtirilgan holda, so'rov natijalari ikki xil yo'nalishdagi tendensiyaning namoyon qildi: bir tomondan, raqamlashtirishning ijobiy salohiyatiga nisbatan yuqori darajadagi ijtimoiy ishonch (ko'pchilik ko'rsatkichlarda 70–80 foiz oralig'ida), ikkinchi tomondan — institutsional amaliyotda bu salohiyatning hali to'liq ro'yobga chiqmaganligi (joriy etish darajasida 18,6 foizgina «to'liq» javobini bergan). Ushbu tafovut — ya'ni jamoatchilik kutilmalari bilan institutsional reallik o'rtasidagi farq —

tadqiqotning muhokama qismida alohida tahlil qilinadigan markaziy nazariy muammo hisoblanadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalarni nazariy asoslar bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish bir qator muhim xulosalarga olib keladi.

Birinchidan, raqamli tengsizlikning respondentlar ongida, avvalo, texnik-infratuzilmaviy daraja bilan bog‘lanishi (72,8%) Norris va van Deykning ko‘p darajali modeliga (Norris, 2001; van Dijk, 2020) to‘liq mos kelmaydi — bu nazariyalarda ko‘nikma va natija darajalari uzoq muddatda yanada chuqurroq tengsizlik manbai sifatida ko‘riladi. Demak, O‘zbekiston jamoatchilik ongida raqamli tengsizlikning «ikkinchi» va «uchinchi» darajalari (savodxonlik va ijtimoiy-iqtisodiy natijalar) yetarlicha konseptuallashtirilmagan — bu holat ta’lim va ommaviy axborot siyosatida alohida e’tiborni talab qiladi.

Ikkinchidan, fuqarolik institutlarining raqamlashtirishni «qisman» o‘zlashtirgani (67,4%) haqidagi natija Xabermas ma’nosidagi jamoat fazosining (Habermas, 1989) to‘liq raqamli muhitga ko‘chishi hali yakunlanmaganini ko‘rsatadi. Bu — Papadarissi ta’kidlagan «virtual sfera»ning (Papacharissi, 2002) tom ma’nodagi demokratik salohiyati O‘zbekiston kontekstida hali to‘liq ro‘yobga chiqmaganini anglatadi: infratuzilma va texnik vosita mavjud bo‘lsa-da, institutsional madaniyat va amaliyot darajasida transformatsiya sekinroq kechmoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning yetakchi kommunikatsiya kanali sifatidagi mutlaq ustunligi (87,2%) bir tomondan Kastels nazariyasini (Castells, 1996) tasdiqlasa, ikkinchi tomondan metodologik xavfni ham keltirib chiqaradi: fuqarolik muloqotining faqat bir nechta xususiy platformalarga bog‘liqligi jamoat fazosining plyuralistik xususiyatini

zaiflashtirishi, shuningdek, algoritmlar boshqaruvidagi diskursning ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Bu — fuqarolik sub'ektligining yangi sifat belgilari (tanqidiy fikrlash, media-savodxonlik) haqidagi nazariy tezislarining amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, sun'iy intellektga nisbatan yuqori ijobiy baho (75,6%) dissonans hosil qiladi: Diamondning «ozodlik texnologiyasi» konsepsiyasi (Diamond, 2010) shuni ko'rsatadiki, har qanday texnologiya ikki tomonlama — ham erkinlashtiruvchi, ham nazorat vositasi sifatida — xizmat qilishi mumkin. Respondentlar ongidagi bir tomonlama ijobiy qarash tanqidiy refleksiyaning yetarli emasligidan dalolat berishi mumkin, bu esa raqamli fuqarolik ta'limi zaruratini ko'rsatadi.

Nihoyat, tadqiqotning eng muhim natijasi — respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (66,4%) tomonidan milliy-madaniy moslashuvchan yondashuvning ma'qullanishi — nazariy jihatdan muhim xulosaga olib keladi: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi universal, g'arbcha andozalar asosida emas, balki mahalla instituti, ijtimoiy ishonch tuzilmalari va milliy boshqaruv an'alarini hisobga oluvchi evolyusion model asosida loyihalashtirilishi lozim. Bu xulosa, o'z navbatida, Putnamning ijtimoiy kapital nazariyasiga (Putnam, 2000) ham mos keladi — chunki ijtimoiy ishonch va o'zaro uyushuv an'analari har bir jamiyatda o'ziga xos tarixiy-madaniy asosga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyati nazariyasining raqamli davr kontekstidagi qayta konseptualashtirilishi zaruratini tasdiqlaydi. An'anaviy nazariyalar (Habermas, Castells, Putnam, Gramsci) raqamli transformatsiyaning umumnazariy asosini ta'minlashda, ularning Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston kabi postsovet tranzit jamiyatlari kontekstiga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy kontekstdagi fuqarolik

sub'ektligining shakllanishi g'arb nazariyalarida tasvirlangan chiziqli evolyusiya modelidan farqli, o'ziga xos gibrid — an'anaviy ijtimoiy institutlar (mahalla) bilan zamonaviy raqamli mexanizmlarning o'zaro ta'sirida kechadigan — traektoriyaga ega. Bu xulosa dissertatsiya tadqiqotining markaziy nazariy tezisi sifatida keyingi boblarda chuqurroq asoslanishi mumkin.

AMALIY TAVSIYALAR

Yuqorida bayon etilgan nazariy va empirik xulosalar asosida fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasini samarali boshqarish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, raqamli savodxonlik va media-savodxonlikni oshirish bo'yicha uzluksiz ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi lozim — bu, ayniqsa, raqamli tengsizlikning «ikkinchi darajasi» (ko'nikmalar) yuzasidan jamoatchilik ongida yetarlicha konseptuallashtirilmaganligini hisobga olgan holda, ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari (NNT, mahalla, OAV) uchun raqamli transformatsiya bo'yicha bosqichma-bosqich yo'l xaritasi ishlab chiqilishi, bunda texnik infratuzilmani joriy etish bilan bir qatorda institutsional madaniyatni va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, kommunikatsiya kanallarining bir nechta xususiy platformalarga (asosan ijtimoiy tarmoqlarga) mutlaq bog'liqligini kamaytirish, shuningdek, milliy raqamli platformalar va ochiq ma'lumotlar tizimlarini rivojlantirish orqali jamoat fazosining plyuralistik xususiyatini mustahkamlash zarur. To'rtinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini fuqarolik jamiyati amaliyotiga joriy etishda tanqidiy baholash va etik nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, respondentlarda kuzatilgan bir tomonlama ijobiy qarashni muvozanatli, tanqidiy refleksiya yo'naltirish zarur.

Shuningdek, natijalarni jins, yosh va ta'lim darajasi kesimida chuqurroq tahlil qilish kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi: masalan, raqamli tengsizlikni texnik daraja bilan bog'lash tendensiyasi yosh avlodda kamroq, katta avlodda esa nisbatan ko'proq kuzatilishi mumkin, bu esa avlodlararo raqamli tafovutning o'ziga xos ko'rinishlarini ochib berishi mumkin. Xuddi shunday, ta'lim darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda raqamli transformatsiyaning institutsional jihatlariga nisbatan tanqidiy qarash kuchliroq bo'lishi ehtimoli nazariy jihatdan asosli bo'lib, bu gipoteza keyingi empirik tadqiqotlarda sinovdan o'tkazilishi mumkin.

TADQIQOT CHEKLOVLARI

Mazkur tadqiqot bir qator metodologik cheklovlarga ega bo'lib, bu natijalarni talqin qilishda hisobga olinishi lozim. Birinchidan, so'rovnomada faol internet foydalanuvchilari ustunlik qilgani sababli, natijalar raqamli muhitdan chetda qolgan ijtimoiy guruhlar (masalan, qishloq joylarida yashovchi keksa avlod vakillari) qarashlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin — bu o'zi ham, paradoksal tarzda, raqamli tengsizlikning namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Ikkinchidan, tadqiqot ko'ndalang kesimli (cross-sectional) xarakterga ega bo'lib, uzoq muddatli dinamikani kuzatish imkonini bermaydi; kelgusida longityud tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Uchinchidan, tadqiqot milliy darajada umumlashtirilgan bo'lib, mintaqaviy (viloyatlararo) farqlarni alohida tahlil qilmaydi — bu esa kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Gramshining gegemoniya konsepsiyasi (Gramsci, 1971) nuqtai nazaridan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarning kommunikatsiya kanallari orasida mutlaq ustunligi (87,2%) yana bir muhim masalani — raqamli platformalarning o'zi yangi turdagi madaniy-mafkuraviy yetakchilik maydoniga aylanish xavfini — kun tartibiga qo'yadi. Agar fuqarolik muloqotining asosiy qismi cheklangan sondagi xususiy raqamli platformalar

orqali kechsa, bu platformalarning algoritmik siyosati amalda jamoatchilik kun tartibini shakllantiruvchi yangi gegemonik kuchga aylanishi mumkin. Shu bois, fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi strategiyasida nafaqat texnik infratuzilma, balki raqamli platformalar ustidan jamoatchilik nazorati va plyuralizmni ta'minlash mexanizmlari ham nazariy jihatdan markaziy o'rinni egallashi lozim.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy va empirik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, global raqamlashtirish davri fuqarolik jamiyati institutlarining mohiyati, faoliyat yuritish mexanizmlari va fuqarolik sub'ektligining sifat belgilarini tizimli ravishda o'zgartirmoqda. Ushbu jarayon O'zbekiston kontekstida o'ziga xos xususiyatlarga ega: bir tomondan, aholining raqamli tengsizlik va raqamlashtirishning ijobiy salohiyatidan yuqori darajada xabardorligi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, institutsional darajada transformatsiya hali to'liq yakunlanmagan va «loyiha-reallik tafovuti» saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: birinchidan, fuqarolik jamiyatining raqamli transformatsiyasi nazariy jihatdan yagona chiziqli jarayon emas, balki turli institutsional va madaniy kontekstlarda turlicha kechadigan ko'p qirrali hodisa sifatida tushunilishi kerak; ikkinchidan, O'zbekiston uchun eng maqbul strategiya — g'arb tajribasini mexanik ko'chirish emas, balki milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga oluvchi evolyusion-moslashuvchan yondashuvdir; uchinchidan, raqamli fuqarolik sub'ektligini shakllantirishda tanqidiy fikrlash va media-savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni fuqarolik institutlarining turlari (NNT, OAV, mahalla) kesimida chuqurlashtirish, shuningdek,

mintaqalararo (shahar-qishloq) qiyosiy tahlil o'tkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Castells, M. (1996). The rise of the network society. Blackwell Publishers.

Diamond, L. (2010). Liberation technology. Journal of Democracy, 21(3), 69–83.

Gramsci, A. (1971). Selections from the prison notebooks (Q. Hoare & G. N. Smith, Eds. & Trans.). International Publishers.

Habermas, J. (1989). The structural transformation of the public sphere: An inquiry into a category of bourgeois society (T. Burger, Trans.). MIT Press. (Original work published 1962)

Hofstede, G. (2001). Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations (2nd ed.). Sage Publications.

Kuldosheva, G. (2021). Challenges and opportunities of digital transformation in the public sector in transition economies: Examination of the case of Uzbekistan (ADB Working Paper No. 1248). Asian Development Bank Institute.

Masharipov, I. B. (2025). Improving the socio-political foundations of civil society institutions in New Uzbekistan. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 14(9), 24–28.

Norris, P. (2001). Digital divide: Civic engagement, information poverty, and the Internet worldwide. Cambridge University Press.

Papacharissi, Z. (2002). The virtual sphere: The internet as a public sphere. New Media & Society, 4(1), 9–27.

Putnam, R. D. (2000). Bowling alone: The collapse and revival of American community. Simon & Schuster.

Tocqueville, A. de. (2000). Democracy in America (H. C. Mansfield & D. Winthrop, Trans.). University of Chicago Press. (Original work published 1835)

van Dijk, J. A. G. M. (2020). The digital divide. Polity Press.